Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishni takomillashtirish.....	617
Ernazarov Alisher Ergashevich, Chinqulova Gulmehra Bahronovna	
Migrant o'quvchilarda pedagogik tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirish metodlari	621
Eshonjonov Bobir Zafarjonovich	
Oliy ta'limda muhandislik faoliyatini ta'minlash metodologiyasi.....	625
Eshonqulov Sherzod Ummatovich	
A Comparative Linguistic Analysis of English and Uzbek Proverbs and Aphoristic Expressions as Structural, Semantic, and Cultural Dimensions	628
Jumayev Sanjar Jurakulovich	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish	631
Komilov Umidjon Normurod o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan loyiha-tadqiqot ishlarini tashkil etishning mazmuni	635
M. X. Tadjiyeva	
Raqamli axborot muhitini shakllantirish bosqichida informatika fanining ahamiyatini belgilab beruvchi omillar	639
Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich, Nazarova Madina Abdullayevna, Xolbayeva Gulnora Bakirovna	
Pedagogik konfliktlar: turlari, sabablari va optimal yechimlari	644
Muhammadiyeva Setora Odil qizi	
Subyektga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik-psixologik asoslari	647
Nigora Negmatova	
Mantiqiy masalalar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy tafakkurini rivojlantirish	651
Pirimova Mohinur Furqat qizi	
Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatishning metodik asoslari.....	654
Qurbonnazarova Ziyoda Abdukarim qizi	
O'quvchilarning matematika faniga qiziqishini oshirishda interfaol metodlar va ijodiy yondashuvlarning roli.....	657
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda o'qitishning tashkiliy-pedagogik shartlari	660
Rahmonova Zulayho Abdumalikovna, Buzrukov T. O.	
Professional sportda faol ayollar salomatligining monitoringi va ularni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish strategiyalari	663
Raimov Xamid Soatovich	
O'quvchilarni jismoniy tarbiyalashda harakatli o'yinlardan foydalanish	666
Ravshanova Sabina Bahodir qizi	
Art-terapiyaning bola "men"ining rivojlanishidagi ahamiyati	669
Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi	
Maktabgacha yosh davr – bolalar ijtimoiylashuvining muhim omili sifatida	672
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Eshmirzayeva Mohichehra Ikrom qizi	
5E modeli asosida darsni loyihalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	676
Shodiyeva Matluba Jo'rayevna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasining psixologik xususiyatlari	681
Shukrullayev Ozod Arzuyevich	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	684
Sodiqova Dinara Alisher qizi	
Matn bilan ishlash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati	687
Soliyev Umidjon Yulchivoyevich	
Narsalarni sanash, miqdorni belgilash uchun qo'llaniladigan matematik vositalar, matematikaning asosiy tushunchalari	691
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	
O'smirlar xulq-atvoriga ommaviy madaniyatning ta'siri	694
Umarova Navbahor Shokirovna, Babayeva Saida Juman qizi	
Nafas olish mashqlarini jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning adaptiv imkoniyatlariga ta'siri	698
Valiyeva N. Y.	
Syujetli-rolli o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish	702
Xalilova Dilnoza Furqatovna	
Talabalar imtihon oldi qo'rquv va xavotirlarining psixologik omillari	705
Xolmatov Zafar Muxtorjon o'g'li	
Umumiy va noorganik kimyo fanini simmetrik yo'nalishdagi tuzilmaviyligini takomillashganligi	708
Xolmurodova Laziza Erkinovna, Xudoyqulova Intizor G'ayrat qizi	
Umumta'lim maktablarida inson resurslarini rivojlantirishga doir zamonaviy boshqaruvning asosiy tamoyillari	711
Xusanov Xasanjon Xusanxo'ja o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish	716
Yusufaliyeva Gulnora Abdurahmonovna	
Dirijyor-xormeysterlik bo'yicha kasbiy-kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari	721
Z. A. Nuraliyeva	
Boshlang'ich maktab o'quvchilarini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv	724
Zaripova Muslima Qurbonovna	
Xorijiy tajribalar asosida o'quvchilarda kritik fikrlashni rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati	727
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Norasmiy va informal ta'limni tan olishning konseptual asoslari va rivojlantirish yo'llari	730
Anvar Allabergenov	
Методы совершенствования слуховых навыков через цифровой сторителлинг в начальных школах	735
Раимова Малохатхон	
Biologiya darslari ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish omili sifatida	740
Quldosheva Dilso'z Sunnatovna	
Xalqaro futbol musobaqalari statistikasi asosida o'yin strategiyalarini tahlil qilish	743
Davranov E. O.	
Особенности проведения занятий по биологии с применением современных педагогических технологий	748
Койилова Мехринисо	



Boshqaruv kadrlar zaxirasini samarali shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari	755
<i>Abdullajanova Dilnozaxon Sultanbekovna</i>	
Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiyaning zamonaviy o'zbek va ingliz tillariga ta'siri.....	761
<i>Abdullayev Shaxobiddin Abduali o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida stem yondashuvi asosida muhandislik ko'nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi.....	765
<i>Abdullayeva Moxinur O'lmasboy qizi</i>	
Proporsiyalar siri.....	769
<i>Arabboyeva Zamiraxon Tadjibayevna</i>	
Zamonaviy ta'limda kreativ yondashuvlar: zamonaviy metodlar va amaliy misollar asosidagi tahlil	773
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuxamadovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik savodxonligini rivojlantirish kompetentsiyasi	777
<i>Eshmurodova Dilobar Nizom qizi</i>	
Havoning nisbiy namligini aniqlash.....	781
<i>Hasanboyeva Diyoraxon, Tojaliyeva Dilyora</i>	
Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya masalalarining olib borilishi tahlili (Italiya va Fransiya maktablari misolida)	784
<i>F. F. Xalilov, Ibodullayeva Dildora Shukrulla qizi</i>	
Individual va differensial yondashuvlarning boshlang'ich ta'lim metodikasi bilan integratsiyasi.....	787
<i>Jinayeva Dilrabo Abdusalomovna</i>	
Blokcheyn texnologiyalari va undan foydalanish yo'llari.....	791
<i>Jomonqulova Fazilat Esirgapovna</i>	
Neyropedagogik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini shakllantirish.....	794
<i>Jumayeva Mahbuba O'ktam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi	798
<i>Mirsaidova Maxbuba</i>	
Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi	801
<i>Nuritdinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li</i>	
Tarbiyalanuvchilarni sensomotorikasining psixologik strukturasini.....	804
<i>Parmonova Laylo Iloxomovna</i>	
Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar nutqining ohang, ritm va sur'atini tarbiyalash metodikasi.....	808
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Pedagogik faoliyatda shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari	812
<i>Shakarboeva Shaxnoza Abdulakimovna</i>	
Talabalarda hunarmandchilik ko'nikmalari va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	816
<i>Sharipova Go'zal Sodiqovna</i>	
Faxriyorning doston yaratishdagi mahorati va ularning badiiylilik xususiyatlari	820
<i>Tangirova Dilbar</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish.....	824
<i>Turanova Iroda Egamberdi qizi</i>	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligini tashkil etishga o'rgatishning metodik asoslari	827
<i>Turdiqulova Luiza Zayniddinovna</i>	
O'zbekistonda til ta'limida innovatsiyalar: sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yondashuvi	831
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi</i>	
Aqli zaif o'quvchilar bilan psixokorreksion ishlarda qo'llaniladigan metodlar.....	835
<i>Usmanova Nilufar Ilhom qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishda sun'iy intellektidan foydalanish	840
<i>Xayitova Firuza Abdullayevna</i>	
Oliy o'quv yurtlarida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion hamkorlik modellari samaradorligi	844
<i>Xaqqulov Komil Yusupovich</i>	



Ta'limda raqamli texnologiyaning o'rni.....	847
<i>Zebuniso Nurtayeva Murodali qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish .	852
<i>Abduraxmonova Sayyoraxon Shaxobidinovna</i>	
Направленное обучение борцов самостоятельному управлению нагрузкой в тренировке по частоте сокращений сердца	856
<i>Алишер Базарбаевич Ашуралиев</i>	
Педагогические возможности развития креативного мышления студентов педагогических вузов	859
<i>Каримова Барно Эргашевна</i>	
Инклюзивное образование: интеграция теоретических основ и практических методов для формирования эффективной образовательной среды	862
<i>Л. З. Намазбаева</i>	
Влияние славянской мифологии на русскую литературу	866
<i>Хайдаров Рамазон Комилжон угли</i>	
Совершенствование методики преподавания русского языка в нефилологических аспектах	871
<i>Ходжибекова М. А.</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida qurish-yasash faoliyatlarini tashkil etishning ahamiyati.	875
<i>Sultonova Nurxon Anvarovna</i>	
Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va tarbiyachi faoliyatining mazmuni.....	878
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Творческий подход к формированию личности будущего воспитателя	881
<i>Халкузиева Дилноза Баходировна</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasasida huquqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari.....	884
<i>Karimova Umida Sharopovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuvni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	887
<i>Mirzayev Shavkat Turdibayevich</i>	
Psixolog talabalarda liderlik kompetentligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	890
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi</i>	
Роль самостоятельного обучения в формировании творчества учащихся	894
<i>Курбанова Бузайнаб Нурмухаммадиевна</i>	
Ingliz tili darslarida yuqori sinf o'quvchilarini madaniyatshunoslik yondashuvi asosida umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash metodikasi	899
<i>Saxoddinova Muhayyo Eshmamat qizi</i>	
Harbiy ta'lim mashg'ulotlarida modulli texnologiyalardan foydalanish.....	904
<i>Usmonov Adxam Abduxamidovich</i>	

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA HUQUQIY TARBIYANI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI

Karimova Umida Sharopovna

Qashqadaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasining
katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarning huquqiy axborotdan foydalanishdan ko'zlagan asosiy maqsadi – o'z huquq va majburiyatlari haqidagi bilimlarini kengaytirishdan iborat ekani yoritilgan. Maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari ijtimoiy-huquqiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: huquq, jamiyat, ta'lim, qonun, shaxs, fuqaro, idrok.

Abstract: The article discusses that the primary goal of young people in using legal information is to expand their knowledge of their rights and responsibilities. It also analyzes the implementation methods of legal education in preschool institutions based on a socio-legal approach.

Key words: law, society, education, legislation, individual, citizen, perception.

Аннотация: В статье представлена информация о том, что основной целью молодежи при использовании правовой информации является расширение знаний о своих правах и обязанностях. Внимание уделено способам реализации правового воспитания в дошкольных образовательных учреждениях на основе социально-правового подхода.

Ключевые слова: право, общество, образование, закон, личность, гражданин, восприятие.

KIRISH

Yoshlarga huquqiy ta'lim-tarbiya berishdan asosiy maqsad har bir yosh huquqiy madaniyatni o'zlashtirib olishiga erishishdan iboratdir. Huquqiy madaniyat shaxs, jamiyat va davlat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatidir. Jamiyatga nisbatan huquqiy madaniyat yuridik qadriyatlar va me'yorlar, huquqiy institutlar, huquqiy ong va xulq-atvor birligining sifat xususiyatini ifodalaydi. Shaxsga nisbatan esa u atrof-muhitni idrok etadigan o'ziga xos "huquqiy qonun" bo'lib, u huquqiy mavqelikni o'zlashtirishining mezonini sifatida gavdalanadi. Jamiyatning huquqiy madaniyati uchun quyidagi xususiyatlar xosdir: qonuniylik prinsipiga rioya etish; qonunga itoatkorlik; demokratizm, shu jumladan jamoat tashkilotlarining huquq me'yorlarini ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishda, huquqning amal qilish mexanizmidan keng ishtirok etishi; fuqarolarning qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan huquqlarining kafolatlanganligi; bu huquqlar bilan jamiyat oldidagi majburiyatlarning birligi.

Huquqiy madaniyat unga va umuman madaniyatga qonun hujjatlari ham, mansabdor shaxslar, muassasalar va fuqarolar xulq-atvori, faoliyati ham albatta mos kelishini talab qiladi, o'z navbatida huquqiy madaniyat ko'p jihatdan huquqiy tizimning o'zi bilan, huquqning hamma tarmoqlari va me'yorlari, huquqiy muassasalarning ishlash amaliyoti bilan belgilanadi.

Shaxs huquqiy madaniyatining o'ziga xos jihatlari: qonunga itoatkorlik; qonuniy va huquqiy institutlarni chuqur hurmat qilish; yuksak darajada ijtimoiy-huquqiy faollik; huquqni ijtimoiy o'zgarishlar va shaxs manfaatlarini himoya qilishning samarali vositalaridan biri sifatida baholash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Individlarning va odamlar turli birliklarining huquqiy madaniyati ularning huquq me'yorlariga rioya etishlariga, shuningdek, ularning ijtimoiy-huquqiy faolliklari darajasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarning huquqiy madaniyatini o'rganish jamiyatimizning kelajakdagi huquqiy holatining istiqbollarini baholashga imkon beradi. Chunki shaxs qaror topib borayotgan davrda uning qadriyatlarga munosabati shakllanadi, huquqqa ijobiy va salbiy munosabat vujudga keladi, faol yoki passiv ijtimoiy-huquqiy xulq-atvoriga qaratilgan yo'l-yo'riqlar vujudga



keladi. Nihoyat, huquqiy ta'lim-tarbiyaning samaradorligi tarbiya obyektining ahvoli to'g'risidagi bilimlarning chuqurligiga va darajalanganligiga muvofiq keladi. Tarbiya objekti, shu o'rinda – yoshlarning ahvolini uning huquqiy madaniyati ko'rsatib beradi.

Odatda yoshlikda yigit-qizlar o'z mehnat yo'llarini boshlaydilar, shuningdek, oila quradilar. Ana shu hol ularning mehnat va oila huquqiga bo'lgan qiziqishida aks etadi. Yoshlar turli guruhlarining yosh xususiyatlari aniq namoyon bo'ladi. Ma'naviy va intellektual yetuklik darajasi oshib borgan sari kriminal adabiyotga, shu tufayli jinoyat huquqiga ham bo'lgan qiziqish kamayadi, buning o'rniga mehnat, fuqarolik va uy-joy huquqiga bo'lgan qiziqish oshib boradi. Yoshlarning huquqqa bo'lgan qiziqishining darajasini ularning ommaviy axborot vositalari (radio, televideniye, gazeta va jurnallar) tomonidan yoritilayotgan turli yuridik masalalarga qiziqishini o'rganish asosida aniqlash mumkin. Bu huquq haqidagi bilimlarni olish maqsadi va sabablari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Yoshlarning huquqiy axborotdan foydalanishdan ko'zlagan asosiy maqsadi o'zlarining huquq va majburiyatlari to'g'risidagi bilimlarini kengaytirishdan iboratdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi vaqtda ijtimoiy ong nazariyasi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning asosiy kamchiliklaridan biri shundaki, ijtimoiy ong ko'pincha subyektga bog'lamasdan o'rganilmoqda. U yoki bu holda aynan kimning, aynan qanday ijtimoiy subyektning ongi tadqiq qilinmoqda degan savolga muttasil e'tibor berilmasligidadir. Bu fikr ijtimoiy-huquqiy ongni tadqiq qilishga ham, huquqiy madaniyatga ham batamom taalluqlidir. Fikrimizcha, ma'naviy hayotga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlarning "subyektsizligi" ularning "bo'lishi kerak narsaga" qaratilganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Aftidan, buning aksini aytish ham o'rinli bo'ladi: subyekt muammo-siga, uning ma'naviy dunyosiga murojaat qilishning o'ziyoq tadqiqotchining "mavjud narsaga" qiziqishini ko'rsatadi, bo'lishi kerak bo'lgan narsa bilan mavjud narsa o'rtasidagi ixtilofni izlashga imkon beradi.

Subyektning ichki tuzilishi ijtimoiy-huquqiy ong va madaniyatning eng kam tadqiq qilingan sohalaridan biridir. Yoshlar o'z huquqiy onglari va huquqiy madaniyatlarining subyekt bo'lib, ayni vaqtda jamiyat huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining subyektlaridan biri hamdir. Jamiyat huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining subyekt sifatida ular ana shu huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yaratuvchilaridan va ifodachilaridan biri vazifasini o'taydi. Individlar va ijtimoiy guruhlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatiga falsafiy ilmiy adabiyotda asosan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va shakllantirish uchun obyekt deb qaraladi. Biroq mutlaqo ravshanki, ijtimoiy munosabatlarning qatnashchilari hamma vaqt ham huquqiy ta'sir ko'rsatishning passiv obyektlari bo'la-vermaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shaxsning hayotiy tajribasi huquq haqidagi tasavvurlarning muhim manbai hisoblanadi. Huquqiy tarbiyani faqat huquqiy ta'lim yoki huquqshunoslikni o'qitishdan iborat deb hisoblash noto'g'ri. Shuni unutmaslik kerakki, huquqiy tarbiya tarbiyaviy ishlarning barcha jihatlarini qamrab olishi, maktablarda birinchi sinfdan boshlab amalga oshirilishi, o'quv yurtlarida huquq bilan bir qatorda boshqa fanlarni o'qitish jarayonida, sinfdan tashqari ishlarda esa leksiyalar, huquqshunoslar bilan uchrashuvlar, og'zaki jurnallar, yosh huquqshunoslar klublari va maktablarini tashkil etish orqali amalga oshirilishi lozim.

Bunda yoshlarning o'z huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishdagi yuridik faolligi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Huquqiy ta'lim-tarbiyani bolaning kichik yoshidan boshlab amalga oshirish, huquqiy axborotlarning birinchi darajali tus olishiga erishish, shaxsning umumiy dunyoqarashi va ijtimoiy yo'naltirilganligi tarkibiy qismi sifatida huquqiy qarashlari va dasturlariga asos yaratish ayniqsa muhimdir.

Huquqiy ta'lim-tarbiya shuningdek, shuning uchun ham ahamiyatlidirki, jamiyat qonunlari o'z dolzarbligini saqlab qoladigan ilg'or va insonparvar qoidalarni o'z ichiga oladi. Tabiiyki, o'z mazmunini yo'qotgan normalar barham topadi, biroq ularning ko'pchiligi jamiyatda saqlanib qoladi. Bu kabi me'yorlar endilikda qonun sifatida mavjud bo'lmasa-da, ular insonlar tomonidan kundalik xatti-harakatlarda odat tusiga kiradi.

Shu tarzda bunday qoidalarining qonunlarda mustahkamlab qo'yilishi va ularga rioya qilinmaganda tegishli huquqiy javobgarlik choralari nazarda tutuvchi normalar bilan mustahkamlanishiga bo'lgan ehtiyoj o'z-o'zidan kamayadi yoki yo'qoladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bunday qoidalar endi ma'naviy tartibga soluvchilar tarzida amal qilaveradi. Rivojlanib borayotgan demokratik jamiyat sharoitida, yuqorida qayd etilganidek, yosh avlodning yuksak ijtimoiy-huquqiy faolligini shakllantirish, ularning turli huquqbuzarliklarga qarshi, qonunchilik va huquqiy tartibotni mustahkamlash yo'lida mustaqil ishtirokini ta'minlash nihoyatda muhimdir. Yoshlarni huquqbuzarliklarga qarshi, qonunlarda belgilangan tartibda kurashishga o'rgatish zarur.

Bu borada hokimliklar, kasaba uyushmalari, O'zbekiston yoshlari jamoat tashkilotlari, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi faol ishtirok etmoqda. Yangi insonni kamol toptirish va huquqiy ta'lim-tarbiyani ta'minlash – yoshlar huquqiy tarbiyasining umumiy vazifalari hisoblanadi. Biroq huquqiy tarbiyaviy faoliyat samaradorligini oshirish manfaatlari, bunday faoliyat yo'nalishlari va mazmuni haqida yanada aniq tasavvur hosil qilish uchun ayrim alohida vazifalarni ajratib ko'rsatish lozim. Ular quyidagilardan iborat:

birinchidan, davlat va huquq masalalariga doir zarur bilimlar tizimini shakllantirish hamda huquqning dolzarb masalalari yuzasidan yoshlarni xabardor qilish;
ikkinchidan, davlat va huquq, qonuniylik prinsiplariga nisbatan hurmat hissini shakllantirish;
uchinchidan, qonunga muvofiq xulq-atvor ko'nikmalarini singdirish;
to'rtinchidan, faol fuqarolik pozitsiyasi va har qanday huquqbuzarliklarga nisbatan toqatsizlikni tarbiyalash;
beshinchidan, qonunlarda belgilangan tartibda o'z, davlat, jamiyat va boshqa shaxslarning manfaatlari hamda huquqlarini faol himoya qilish ehtiyoji va qobiliyatini shakllantirish;
oltinchidan, davlat va huquqqa nisbatan noto'g'ri qarashlarga qarshi turish, ularni faol va asosli tarzda fosh etish qobiliyatini singdirish.

Bilimlar xususida gapirganda, bu yerda avvalo yosh avlodga bu bilimlar qanday hajmda yetkazilishi lozimligi masalasi dolzarb bo'ladi. Nazarimizda, umumiy ta'lim maktablari doirasidagi huquqiy ta'lim-tarbiya, birinchi navbatda, voyaga yetmaganlarni ular hozirda bajarayotgan va kelgusida ado etishi lozim bo'lgan ijtimoiy rollarga – davlat fuqarosi, oila a'zosi, o'quvchi – tayyorlashga xizmat qilishi zarur.

Huquqlar bilan majburiyatlarning o'zaro bog'liqligi printsipli suveren, demokratik davlat qonunchiligining asosiy tamoyillaridan biridir. Agar bir toifadagi fuqarolarning huquqlari boshqa toifadagilarning majburiyatlari bilan uyg'unlashmasa, bu huquq amalda "havoda osilib qolgan", ya'ni real bo'lmagan huquqqa aylanadi. Masalan, fuqaroning dam olish huquqi mavjud bo'lsa-da, agar ma'muriyat tomonidan unga ta'til berish majburiyati belgilab qo'yilmagan bo'lsa, bu huquq amalda quruq bayonotdan iborat bo'lib qoladi.

Shu sababli odamlar o'z majburiyatlarini bilishlari, shu bilan birga o'z huquqlarini to'g'ri tushunib yetishlari va ularni himoya qila olishlari muhimdir. Ana shundagina aniqlanmay qolayotgan va jazolanmay qolayotgan huquqbuzarliklar soni kamayadi. Yoshlarning e'tiborini faqat majburiyatlarga emas, balki huquqlarga ham qaratish, ularni qonunlarda nazarda tutilgan to'liq huquq va majburiyatlar bilan tanishtirish nihoyatda dolzarbdir.

Bu esa fuqarolarning yuksak ijtimoiy-huquqiy faolligini shakllantirishga, ularning jamiyatning boshqa a'zolari bilan o'zaro aloqadorligini anglashlariga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – Toshkent, 2005. – 104 b.
2. Shodiyev R.D., Qosimova G.I. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Qarshi: Nasaf, 2021. – 130 b.
3. Qosimova G.I. Didactic foundations of the integration of natural science knowledge in primary school as a mechanism of systematic cognition of the surrounding world // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences (England). – Vol. 8, No. 4, 2020. – Part II. – P. 2056–5852.
4. Qosimova G.I. Features of the subject-object area of natural science knowledge at primary school // The Way of Science. International Scientific Journal. – № 8 (78), 2020. – P. 37–41. – ISSN 2311-2158.
5. Qosimova G.I. Systematic model of formation of the images of natural science and its effective implementation didactic state // International Journal for Innovative Engineering and Management Research (India). – Vol. 10, Issue 01, January 2021. – P. 63–68. – ISSN 2456-5083.
6. Qosimova G.I. The process of cognition of the surrounding world by primary school students and the balance of the laws of scientific knowledge // AKADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal (India). – Vol. 11, Issue 2, February 2021. – P. 2249–7137. – Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492.
7. Qosimova G.I. Development of natural scientific thinking in elementary school students' style // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ). – Vol. 9, Issue 5, May 2021. – P. 467–470.
8. Qosimova G.I. Olamning tabiiy-ilmiy manzarasi tushunchasining metodologik asoslari // Muallim ham uzluksiz bilimlanuvchi. – Nukus, 2020. – № 6/1. – B. 87–91. (13.00.00, № 20).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.